Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · “Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24318289

materiallar to‘plami

ISHLAB CHIQARISHDAGI BAXTSIZ HODISALARNI TEKSHIRISH XUSUSIYATLARI VA ISHLAB CHIQARISH JAROHATLARINI HISOBGA OLISH TARTIBI

Mavlonov Javlonbek Abduraxmon o‘g‘li,
Andijon mahinasozlik instituti, “Transport va logistika” fakulteti, “Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” o‘quv yo‘nalishi, 4-kurs,31-20-guruhi talabasi.

Annotatsiya:

Ishlab chiqarish korxonalarida sodir bo‘layotgan baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish jarayonidagi mavjud muammolarning tahlili asosida ularni takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar *: baxtsiz hodisalar, kasb kasalliklari, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, davlatning milliy mudofaa ehtiyojlari, kompensatsiya to'lovlari, ijtimoiy sug'urta, mehnat majburiyatlari, tabiiy ofatlar.*

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari jiddiy ijtimoiy muammo va katta iqtisodiy yo‘qotishlarning sababi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Xalqaro Mehnat Tashkilotining hisob-kitoblariga ko'ra, har yili dunyoda faqat sanoat tarmoqlarida 50 millionga yaqin baxtsiz hodisalar(ya'ni kuniga o'rtacha 160 ming holat sodir bo'lmoqda) [1].

Ishlab chiqarish jarohatlari natijasida har yili dunyoda 100 mingga yaqin odam halok bo'ladi, yuz minglab odamlar nogiron bo'lib qoladilar. Ba'zi sanoati rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar bilan bog'liq ish vaqtining yo'qolishi ish tashlashlar va boshqa mehnat nizolari natijasida yo'qolgan vaqtdan 4-5 baravar yuqori.

Ba'zi xorijlik ekspertlarning fikricha, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar natijasida yuzaga kelgan moliyaviy yo'qotishlar ba'zan davlatning milliy mudofaa ehtiyojlariga sarflangan xarajatlari bilan taqqoslanadi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan kelib chiqadigan iqtisodiy zarar faqatgina kompensatsiya to'lovlari uchun sarf-harajatlar bilan ifodalanmaydi. U rejalarning bajarilmasligi yoki ishlab chiqarish hajmining kamayishi, binolar va jihozlarning shikastlanishi tufayli bosha yo'qotishlarni o'z ichiga oladi. Eng yirik avariyalar jiddiy ijtimoiy va ekologik oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Inson hayotining yo'qolishi esa hech narsa bilan o'rnini bosib bo‘lmaydi[2].

Mamlakatimizda xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, kasbiy kasalliklarning oldini olish, ishlab chiqarish bilan bog'liq kasalliklarni va shunga mos ravishda ular bilan bog'liq iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirish muammolari juda dolzarb bo'lib qolmoqda

O‘zbekiston Respublikasining meyoriy-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan zarar ko'rgan ishchilar(halok bo‘lganlarning oila a'zolari)ning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, aybdor shaxslarni aniqlash uchun ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklarni tekshirish va qayd etish, mehnatni muhofaza qilish talablarini buzganlarni aniqlash, ishlab chiqarish shikastlanishining sabablarini bartaraf etish choralarini ishlab chiqish zarurligi belgilab berilgan[3].

Published: 10.11.2023

Cite this article: Mavlonov Javlonbek Abduraxmon o‘g‘li (2023). Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish xususiyatlari va ishlab chiqarish jarohatlarini hisobga olish tartibi. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24318289

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Xususan, qonun hujjatlari talablariga muvofiq tuzilgan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini tekshirish natijalari xodimlarning mehnat shartnomasi bo‘yicha mehnat majburiyatlarini bajarish chog‘ida hayoti va sog‘lig‘iga etkazilgan zararni qoplash uchun asos bo‘ladi. Shuningdek,bu hujjatlar, majburiy ijtimoiy sug'urta asosida, vafot etgan ishchilarning oila a'zolariga va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan ishchi-xodimlarga etkazilgan zararni qoplash uchun xizmat qiladi. Biroq, sug'urtalovchi har doim ham qonunning ushbu talabiga rioya qilmaydi. Bu hollarda,jabrlanuvchi, o'z huquqlarini himoya qilish uchun sud organlariga murojaat qilish huquqiga ega.

Quyidagi holatlar baxtsiz hodisa sifatida tekshirilishi kerak:

- jabrlanuvchilar tan jarohatlari olganda(shu jumladan boshqa shaxs tomonidan etkazilganda);

-issiqlik urishi;

-kuyish;

-sovuq urish;

-cho'kish;

-elektr toki urishi, chaqmoq, radiatsiya;

-hayvonlar va hasharotlar tomonidan tishlash va boshqa tan jarohatlari;

-portlashlar;

-binolar va inshootlarning vayron bo'lishi; t

-tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar;

- sog'lig'iga tashqi omillar ta'sirida etkazilgan boshqa zarar, (buning natijadasida jabrlanganlarni boshqa ishga o'tkazish zarurati tug‘ilsa);

- vaqtincha yoki doimiy nogironlik kelib chiqsa yoki jabrlanganni o‘limiga sababchi bo‘lsa.

Xulosa: O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi,qonunlari va boshqa qonunosti hujjatlarida ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va qayd etish tartibi etarlicha bayon qilib berilgan. Bu esa tegishli organlar va shaxslar tomonidan o'z vazifalarini to'g'ri bajarganlarida, birinchi navbatda, baxtsiz hodisalarni qayd etish , ikkinchidan, kelajakda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun aybdorlarni javobgarlikka tortish imkonini beradi

***Ilmiy rahbar** : Xodjakuloiv M.N.*
“Mehnat muhofazasi” kafedrasi
dotsenti v.b.

Adabiyotlar

1.В. Иглин. Проблемы учёта и расследования несчастных случаев на производстве.Вестник Волжского университета им.В.Н.Татищева.2003,№5 с.13

2. Иванов В. Если работа вредна и опасна .Вестник ВГУ.2003. № 5. с. 29.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi ”Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlsh to‘g‘risida”gi 286-son qarori.